

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 33 yilligi munosabati bilan doshqozonda osh damlandi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Magistratura bo'limi rahbari, dotsent Matluba Isakova homiyligida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 33 yilligi munosabati bilan doshqozonda ehson oshi damlanib, institutning professor-o'qituvchilari hamda Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan yigit-qizlarga tarqatildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida rektor, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yuldashevning tashabbusi bilan 2018-yilning yanvar oyidan boshlab, an'ana tusini olgan tadbir davomida ta'kidlandiki, institutda yoshlarning intilishlarini, iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash borasida samarali ishlar bajarilmoqda. Institut rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli sa'y-harakatlar nafaqat ta'lim borasida, balki oliygohda ta'lim olayotgan yoshlarning talabalar turar joyidagi qulayliklar, ular uchun yaxshi sharoitlar yaratib berishga ham qaratilmoqda. Bugun tarqatilgan ehson osh xayrli ishlarning mantiqiy davomidir.



Barchamizga ma'lumki, xalqimiz bebaho qadriyatlari, shu jumladan, mehmondo'stligi, xayru saxovatligi, qo'li ochiqligi bilan azaldan olamni o'ziga maftun yetib kelgan. O'zbek xonadonlarida hamisha qavmu qarindosh, qo'ni-qo'shni va yoru qadrdonlarga dasturxon yozish, taom ulashish kabi ishlar asrlar davomida jahon tamadduni sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan.



Bunday ishlarni bajarish, yaqinlarni bir dasturxon ustiga jamlash zahirida yaxshilik va baraka borligi e'tirof etiladi. Ana shunday qadriyatlarimiz mohiyatini yosh avlodga yetkazish ham pedagoglarning oldida turgan dolzarb vazifadir.



Professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishchi xodimlar, talabalar qatnashgan ushbu marosimda mana shunday ezgu fazilatlar haqida so'z yuritildi. Qolaversa, talabalar tomonidan bir-biridan ajoyib she'rlar aytili.